

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

IBROHIMOVA GULI ABDILVAXOB QIZI

**JANUBI-G‘ARBIY QIZILQUM MINTAQASIDA TARQALGAN
SALSOLA L. TURKUMI AYRIM TURLARINING STRUKTURAVIY
MOSLASHISH XUSUSIYATLARI**

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Ibrohimova Guli Abdilvaxob qizi

Janubi-G‘arbiy Qizilqum mintaqasida tarqalgan *Salsola* L. turkumi ayrim turlarining strukturaviy moslashish xususiyatlari3

Иброхимова Гули Абдилвахоб кизи

Структурно-адаптивные особенности некоторых видов рода *Salsola* L. произрастающие в регионе Юго-западного Кызылкума21

Ibrohimova Guli Abdilvakhob kizi

Structural-adaptive features of some species of the genus *Salsola* L. growing in the region of South-Western Kyzylkum.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works43

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

IBROHIMOVA GULI ABDILVAXOB QIZI

**JANUBI-G‘ARBIY QIZILQUM MINTAQASIDA TARQALGAN
SALSOLA L. TURKUMI AYRIM TURLARINING STRUKTURAVIY
MOSLASHISH XUSUSIYATLARI**

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/B1242 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.botany.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Duschanova Guljan Mabrimbayevna
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rajabov Toshpo'lot Fayzulloyevich
biologiya fanlari doktori, professor

Berdibayeva Dilfuza Bazarbayevna
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "7" mart kuni soat 15³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (67-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "24" fevral kuni tarqatildi.
(2025 yil "24" fevral 5-raqamli reyestr bayonnomasi).

K.SH. Tojibayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, b.f.d., akademik

U.H. Qodirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, katta ilmiy xodim

H.F. Shomurodov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Hozirgi vaqtda tuproqning sho‘rlanishi dunyoning ko‘plab mamlakatlarida iqtisodiyot tarmoqlariga katta zarar yetkazayotgan global muammolardan biridir. “FAO ning sho‘rlangan tuproqlar xaritasida dunyoning 833 mln gektardan ortiq tuproqlari sho‘rlangan va ekin maydonlarining 10 % sho‘rlangan va dunyo bo‘ylab oziq-ovqat xavfsizligi uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda”¹.

Jahonda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1995 yil O‘zbekiston, Markaziy Osiyo mintaqasi va MDH davlatlari orasida “Cho‘llanishga qarshi kurash to‘g‘risida”² gi konvensiyasining ishlab chiqilishi va kuchga kirishi bilan O‘zbekistonning degradatsiyaga uchragan yerlarining meliorativ holatini tubdan yaxshilash va unumdorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, tuproq sho‘rlanishiga qarshi kurashishda samarali usullardan foydalanish, suv tejankor texnologiyalarni joriy etish, sho‘rlangan tuproqlarga chidamli galofit o‘simlik turlarini aniqlash va moslashish mexanizmlarini o‘rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Hozirda respublikamizda degradatsiyaga uchragan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda sho‘rlanishga chidamliligi yuqori bo‘lgan, kuchli sho‘rlangan tuproqlarda va qurg‘oqchil sharoitlarda o‘sib rivojlanadigan, ekologik, biologik, anatomik, fiziologik va biokimyoviy jihatdan ixtisoslashgan hamda yuqori biomassali reproduktiv organlarini hosil qiladigan galofit o‘simliklarga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada jumladan, galofit o‘simliklarning sho‘rlanish ta‘sirida vegetativ organlarining anatomik belgilarini o‘rganish, ulardagi o‘ziga xos strukturaviy moslashish xususiyatlarini aniqlash, o‘simliklarning xo‘jalikdagi ahamiyatini tavsiflash, sho‘rlangan yerlar rehabilitatsiyasida foydalanish borasida muayyan natijalarga erishildi. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasida³ “...cho‘l hududlarida o‘simliklarni ko‘paytirish, sug‘oriladigan yerlarni eroziyadan va meliorasiya ob‘ektlarini qum ko‘chishidan saqlash, tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish ...” bo‘yicha vazifalar berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda jumladan, *Salsola* turkumi turlarining kelib chiqishi, sistematikasi va ekologiyasini aniqlash, morfo-anatomik tadqiqotlar asosida vegetativ organlarining strukturaviy xususiyatlarini o‘rganish, adaptiv belgilarini funksional jihatdan baholash, genotipik va fenotipik belgilari asosida turlar chidamlilik ko‘rsatkichlarini aniqlash, og‘ir metallar bilan sho‘rlangan tuproqlarning zararlanish darajasini kamaytirish va tuproqning fitomeliorativ holatini yaxshilashda istiqbolli turlarni aniqlash bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 29-oktyabrdagi PF-3932-son “Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-

¹ Food and Agriculture Organization (FAO) of the United Nations (<https://www.fao.org/soils-portal/data-hub/soil-maps-and-databases/global-map-of-salt-affected-soils/en/>)

² Birlashgan Millatlar Tashkiloti (<https://lex.uz/docs/-4211813>)

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risi”da Farmoni.

tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2013 yil 19-apreldagi PQ-1958-son “2013-2017 yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-iyundagi PQ-484-sonli “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijlik olimlar tomonidan *Salsola* turkum turlarining morfologiyasi va sistematikasi S.L. Mosyakin va boshq. (2014), A.P. Suxorukov (2014), P. Hernandez-Ledesma et al. (2015), M. Nazish et al. (2019); filogeniyasi va molekulyar biologiyasi H. Akhani et al. (2007; 2014), Z. Wen et al. (2015), M. Lauterbach et al. (2017), A. Rudov et al. (2020); vegetativ organlarining anatomik tuzilishi N.A. Ivanova, L.M. Muzichko (2013), M.M. Dubravka et al. (2013), A.A. Aminova va boshq. (2016), B.B. Osmonali va boshq. (2020); ekologiyasi, yem-xashakliligi va fitomeliorativ holati V. Altay, M. Ozturk (1997), Z. Hanif et al. (2018), Mai H. El Naggara et al. (2022); dorivorlik xususiyatlari C. Colas et al. (2006), A. Ferrer et al. (2010), M. Uzma et al. (2014), A. Djeridane et al. (2015), Z. Hanif et al. (2018), M.A. Al-Malki et al. (2021) ilmiy tadqiqot ishlarida keltirilgan.

Respublikamizda olib borilgan izlanishlar davomida *Salsola* turkum turlari morfologiyasi va sistematikasi V.P. Bochansev (1953; 1969), galotolerantligi N.I. Akjigitova (1982), ontogenezi va anatomik tuzilishi qisman A.A. Butnik va boshq. (2009, 2017); ekologiyasi I. Mamasoliyev (1970); dorivorlik xususiyati R.A. Alimova, P. Mirxamidova va boshq. (2021), E.T. Berdiyev va boshq. (2016); yem-xashakliligi va geobotanik tadqiqotlar Z.Sh. Shamsutdinov va boshq. (2000, 2002); X.F.Shomurodov (2018), K.Sh. Tojibayev va boshqalar (2020) tomonidan o‘rganilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Biologiya fakulteti Botanika va o‘simliklar fiziologiyasi kafedrasining “O‘zbekiston o‘simliklar dunyosining xilma-xilligini muhofaza qilish va boyitish” hamda “Istiqbolli noan‘anaviy o‘simliklar introduksiyasi hamda fiziologik-biokimyoviy xususiyatlari” (2016-2023) mavzularidagi ilmiy-tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi *Salsola* L. turkumi turlari ontogenezining davr va bosqichlarida vegetativ organlarining diagnostik belgilarini o‘rganish asosida strukturaviy moslashish xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Salsola turkumi turlarining arid mintaqasida ontogenezining davr va

bosqichlarini o‘rganish;

ontogenez bosqichlarida assimilyatsiyalovchi organlarining morfo-anatomik tuzilishini yashash sharoitiga bog‘liq holda o‘rganish;

ontogenezning generativ davrlarida o‘q organlarining strukturaviy xususiyatlarini aniqlash;

assimilyatsiyalovchi va o‘q organlarining taksonomik belgilarini aniqlash;

vegetativ organlarining strukturaviy moslashish xususiyatlarini turlarning kelib chiqishi va yashash sharoitiga bog‘liq holda aniqlash;

sho‘rlanishga chidamli bo‘lgan *Salsola* turkumi istiqbolli turlarini amaliyotga tavsiya qilish.

Tadqiqotning ob‘yekt Janubi-G‘arbiy Qizilqum mintaqasida tarqalgan *Salsola paulsenii* Litv., *S. aperta* Pauls., *S. incanescens* C.A. Mey., *S. sclerantha* C.A. Mey. va *S. leptoclada* Gand. bir yillik turlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti *Salsola* turkumi turlarining ontogenezi, morfologiyasi, anatomiyasi va moslashish xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada morfologik, fenologik, anatomik, biometrik va statistik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

S. paulsenii va *S. leptoclada* turlari ontogenezida virginil davrning qisqaligi va generativ davrning uzoqligi reproduktiv rivojlanish strategiyasi hisoblanib, qurg‘oqchil sharoitga yuqori darajada moslashganligi ochib berilgan;

S. sclerantha va *S. leptoclada* turlari bargining tupbargsimon shakllanganligi ularning primitivligi, *S. paulsenii* va *S. incanescens* turlarida esa bargining tupbargsizligi va urug‘pallabargning kotiledonar tipliligi ularning evolyutsiya jarayonida prodvnutiyligi izohlangan;

S. paulsenii va *S. incanescens* turlari urug‘pallabarg va barg mezofillarida krans hujayraning shakllanganligi – C₄-tipli, *S. aperta*, *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlarida esa urug‘pallabarg mezofillida krans hujayraning shakllanmaganligi – C₃-tipli va barg mezofillida krans hujayraning shakllanganligi – C₄-tipli fotosintez jarayonining amalga oshishi ochib berilgan;

ontogenezning mevalash fazasida *S. aperta* va *S. incanescens* – monopodial tipli mezobaziton shoxlanganligi, *S. paulsenii* va *S. sclerantha* – simpodial tipli baziton shoxlanganligi, *S. leptoclada* turida esa gemisimpodial tipli mezobaziton shoxlanganligi aniqlangan;

o‘rganilgan turlar o‘q organlarining anomal-polikambial yo‘g‘onlashganligi *S. paulsenii* poyasining krans-sklerenxim-bog‘lamsimon tipliligi, *S. aperta*, *S. incanescens*, *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlarida esa sklerenxim-bog‘lamsimon tipliligi, *S. paulsenii*, *S. aperta*, *S. incanescens* turlari ildizining spiral-bog‘lamsimon tipliligi, *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlarida esa halqali-bog‘lamsimon tipliligi aniqlangan;

assimilyatsiyalovchi va o‘q organlarining strukturaviy moslashgan belgilari asosida *S. paulsenii* va *S. incanescens* turlarida kseromorf belgilar, *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlarida esa ksero-galomorf belgilar hamda *S. aperta* turida galomorf belgilarning ustunlik qilishi izohlangan;

Salsola turlari vegetativ organlarining hujayralarida kaltsiy oksalat druzlari va kristallarning mavjudligi sho‘rlangan tuproqdagi og‘ir metallarning zaharlilik darajasini kamaytirishi hisobiga tuproqning fitomeliorativ tarkibini yaxshilashda istiqbolli turlar sifatida foydalanishga tavsiya etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

S. paulsenii va *S. incanescens* turlarida kseromorf, *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlarida ksero-galomorf va *S. aperta* turida galomorf belgilarning yaqqol namoyon bo‘lganligini hisobga olgan holda ular sho‘rlangan tuproqning fitomeliorativ tarkibini yaxshilashda istiqbolli turlar sifatida foydalanishga tavsiya etilgan;

Tadqiqotlar davomida *S. paulsenii*, *S. aperta*, *S. incanescens*, *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlaridan yig‘ilgan gerbariy namunalari O‘zbekiston milliy gerbariy fondi (TASH) ga topshirilgan;

Salsola turkumi ayrim turlarining Janubi-G‘arbiy Qizilqum mintaqasida tarqalishi bo‘yicha olingan natijalar GBIF – xalqaro global biologik xilma-xillik ma’lumotlar tarmog‘ida e’lon qilingan;

Salsola bir yillik turlarining ekologo-edafitik sharoitlarda tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalari yaratilgan va O‘zbekiston Florasi yangi nashriga joriy qilinganligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan klassik, zamonaviy usullar hamda ilmiy yondashuvlar asosida olingan natijalarni nazariy ma’lumotlarga mos kelishi, natijalarning yetakchi ilmiy nashrlarda e’lon qilinganligi, tadqiqot natijalaridan fundamental loyihalarning bajarilishida foydalanilganligi, dissertatsiya tadqiqoti amaliy natijalari vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi va ularning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati *Salsola* turlari ontogenezining davr va bosqichlarida genotipik va fenotipik belgilarning aniqlanganligi, assimilyatsiyalovchi va o‘q organlarining sho‘rlangan va qurg‘oqchil sharoitlarda ksero- va galomorf belgilariga ko‘ra moslashish qonuniyatlari ochib berilganligi, vegetativ organlarning to‘qima va hujayralarida ko‘p sonli kaltsiy oksalat druzlari va kristallarning mavjudligi tuproqning fitomeliorativ tarkibini yaxshilashda istiqbolli turlar sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar asosida *Salsola* turlari sho‘rlangan maydonlar fitomeliorativ holatini yaxshilashda foydalanishga tavsiya qilinganligi, turlarning Qizilqum okrugida tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalarini yaratilganligi, yig‘ilgan gerbariy namunalari bo‘yicha olingan ma’lumotlarning global biologik xilma-xillik ma’lumotlar tarmog‘iga (GBIF) joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Janubi-G‘arbiy Qizilqum mintaqasida tarqalgan *Salsola* L. turkumi ayrim turlarining strukturaviy moslashish xususiyatlari bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Salsola turlarining Janubi-G‘arbiy Qizilqum mintaqasida tarqalishi bo‘yicha olingan ma’lumotlar Global biologik xilma-xillik ma’lumotlar tarmog‘iga

joylashtirilgan (Global biologik xilma-xillik ma'lumotlar tarmog'ining 2024 yil 20-avgustdagi №013 sonli ma'lumotnomasi). Natijada Global biologik xilma-xillik ma'lumotlar tarmog'ida (GBIF) Janubi-G'arbiy Qizilqum mintaqasidagi *Salsola* turlarini geografiya va filogenez bo'yicha global tahlil qilish imkonini bergan;

Janubi-G'arbiy Qizilqum mintaqasida *S. paulsenii*, *S. aperta*, *S. incanescens*, *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlaridan yig'ilgan 150 dan ortiq gerbariy namunalari Markaziy Osiyo o'simliklar dunyosi bo'yicha eng yirik kolleksiyalardan biri O'zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) ilmiy noyob ob'yekti fondiga topshirildi. Tadqiqot hududidan yig'ilgan *Salsola* turlarining yangi gerbariy namunalari hamda shu kunga qadar O'zbekiston Milliy gerbariy fondida saqlanayotgan gerbariy namunalari asosida Qizilqum okrugida o'suvchi *Salsola* turlarning morfologik tasnifi keltirilib, ularning tarqalish xaritalari yaratildi va O'zbekiston Florasi yangi nashrida joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024 yil 17-sentyabrdagi № 4/1255-2081-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tadqiqot hududidan yig'ilgan gerbariy namunalari O'zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) ilmiy noyob ob'yekt fondini boyitgan, O'zbekiston florasining yangi nashri va O'zbekiston florasining elektron ma'lumotlar bazasining axborot-tahlil tizimini shakllantirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ilmiy ish chop etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, jumladan 6 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha respublika va xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob'yekti va predmeti, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "***Salsola L. turkumi* turlarining o'rganilganlik darajasi, tadqiqot ob'yekti va usullari**" nomli birinchi bobi *Salsola* turkumi turlarining o'rganilish tarixi, sistematik o'rni, molekulyar biologiyasi, morfologiyasi, ontogenezi, anatomiyasi, ekologiyasi, kimyoviy tarkibi, biotexnologiyasi, farmokognoziyasi, dorivorligi va yem-xashakliligi bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning olib borgan tadqiqotlari tahliliga bag'ishlangan, shuningdek, tadqiqotning ob'yekti va usullari keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Tabiiy sharoitda *Salsola L.* turkumi turlarining ontogenezi” deb nomlangan ikkinchi bobida Janubi-Gʻarbiy Qizilqum mintaqasida tarqalgan *Salsola* turlari ontogenezining davr va bosqichlarini oʻrganish asosida turga xos boʻlgan ontogenetik xususiyatlari aniqlangan.


Latent davr. *Salsola* turlari mevasi bir urugʻli, lizikarp, 5 ta perigonal gulqoʻrgʻon kosachabarglari bilan qoplangan boʻlib, *S. paulsenii*, *S. incanescens*, *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlarida gulqoʻrgʻonning uchki qismi oʻtkir konussimon shaklda (1-rasm, a), *S. aperta* gulqoʻrgʻonining ustki qismi esa bir-biriga birikmagan boʻlib, markaziy qismi 2 mm gacha ochiq boʻladi. Urugʻlarning uzun tinim davriga ega boʻlishi *S. paulsenii*, *S. aperta* (3,5 oy) va *S. sclerantha* (2,5-3 oy), qisqa tinim davriga ega boʻlishi esa *S. leptoclada* (2,5 oy) va *S. incanescens* (2-2,5 oy) turlarida kuzatildi. Laboratoriya sharoitida *S. incanescens* turida 5-6 ta va *S. leptoclada* turlarida 1-2 ta urugʻlarining unganligi va 3-5 kundan keyin nobud boʻlganligi, qolgan turlarda esa urugʻlarning unmagani kuzatildi. Dala sharoitida urugʻlarning unuvchanligi *S. incanescens* (85-90 %) va *S. paulsenii* (75-80 %) turlarida yuqoriligi, *S. sclerantha* (40-45 %) va *S. leptoclada* (35-40 %) turlarida oʻrtachaligi hamda *S. aperta* (5-10 %) turida esa pastligi aniqlandi.

Virginil davr. *Maysa bosqichida* barcha turlarda urugʻpallabarglari juda nozik, chiziqsimon, halqasimon va yarimdoirasimon shaklda boʻlib, *S. paulsenii* (1-1,2 sm) va *S. aperta* (0,8-1 sm) turlarida yirikligi, *S. sclerantha* (0,4-0,5 sm), *S. leptoclada* (0,5-0,7 sm) (1-rasm, b) va *S. incanescens* (0,6-0,8 sm) turlarida kichikligi aniqlandi. *Salsola* turlari urugʻpallabarglari yashovchanligining davomiyligi *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlarida yuvenil va *S. paulsenii*, *S. aperta* va *S. incanescens* turlarida esa immatur bosqichlarida qurib nobud boʻlishi aniqlandi. *Yuvenil bosqichida* 4-8 ta chin barglari hosil boʻlib, tupbargsimon (*S. sclerantha* va *S. leptoclada*) (1-rasm, d) va 2-4 ta chin barglar – tupbargsiz (*S. paulsenii*, *S. aperta* va *S. incanescens*) shakllarga ega. A.A. Butnikning (1975) maʼlumotlarini tasdiqlagan holda, *S. paulsenii*, *S. aperta* va *S. incanescens* turlarida fotosintez jarayonining chin barglarga nisbatan urugʻpallabarglarda amalga oshishi, urugʻpallabarglar vegetatsiyasining davomiyligi va chin barglarning tupbargsimon shaklga ega emasligi bilan izohlanadi. *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlarida fotosintez jarayonining urugʻpallabarglarga nisbatan chin barglarda amalga oshishi, urugʻpallabarglar vegetatsiyasining qisqaligi va chin barglarning tupbargsimon shaklga egaligi bilan izohlanadi. Chin barglarning tupbargsimon shakli – primitiv belgi, tupbargsiz shakli esa – prodvnutiy belgi boʻlib, arid mintaqasi uchun yuqori darajada moslashganlik belgisi hisoblanadi.

Immatur bosqichida asosiy novdaning shakllanishi va 1-2-boʻgʻimda chin barglar qarama-qarshi, qolgan boʻgʻimlarda esa ketma-ket joylashgan.

Salsola turlarida asosiy novdadan II- va III-tartibli novdalar shakllanib, mezobaziton tipda joylashgan boʻlib, monopodial tipli shoxlanish modeliga ega. *S. incanescens* va *S. sclerantha* turlarida virginil davrning immatur bosqichi maysa va yuvenil bosqichlariga nisbatan uzoq davom etganligi generativ davrning kech boshlanishi va qisqa davrga egaligi bilan izohlanadi. *S. paulsenii* va *S. incanescens* turlari urugʻpallabarglarining vegetatsiyasi virginil davri immatur bosqichining

oxirlarigacha saqlanganligi, ularning kotiledonar tipga mansubligini izohlaydi. *S. paulsenii*, *S. incanescens*, *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlarida chin barglari immatur bosqichida qurib nobud bo'lishi va *S. aperta* turida esa generativ davrigacha saqlanishi aniqlandi (1-rasm, e).



1-rasm. *S. leptoclada* turi ontogenezing davr va bosqichlari: a – latent davr, b – maysa bosqichi (p); d – yuvenil bosqichi (j), e – immatur bosqichi (im), g – generativ davr.

Generativ davr. Gullash fazasi *S. paulsenii* turida may oyining o'rtasida, *S. aperta* va *S. leptoclada* turlarida iyun oyining boshida hamda *S. sclerantha* va *S. incanescens* turlarida esa iyul oyining oxirida boshlandi. Mevalash fazasida *S. incanescens* va *S. aperta* turlari monopodial tipli mezobaziton shoxlangan va III-IV-tartibli novdalar shakllangan bo'lib, o'simliklar gabitusi kichikligi hamda reproduktiv organlari hosildorligining boshqa turlarga nisbatan kam bo'lishi aniqlandi.

S. paulsenii va *S. sclerantha* turlari simpodial tipli baziton va *S. leptoclada* turi gemisimpodial tipli mezobaziton shoxlangan bo'lib, barcha turlarda IV-V-tartibli novdalar shakllanganligi, gabitusining yirikligi, qum va qum-shag'alli tuproqlarda

tarqalganligi hamda qolgan turlarga nisbatan reproduktiv organlari hosildorligining yuqori bo'lishi aniqlandi.

Kserotermik sharoitda *S. paulsenii* va *S. leptoclada* turlarida generativ davrning virginil davrga nisbatan davomiyligi, mazkur turlarning qurg'oqchil yashash sharoitiga yuqori darajada moslashganligini aks ettiradi.

Ontogenezning vegetatsiya davrining davomiyligi uzun bo'lishi *S. incanescens* (252-281) va *S. leptoclada* (245-287), nisbatan uzun bo'lishi *S. paulsenii* (219-252) va *S. sclerantha* (234-246) va qisqa bo'lishi esa *S. aperta* turida (216-230 kun) aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“*Salsola* L. turkumi turlari vegetativ organlarining strukturaviy xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida *Salsola* turlarining assimilyatsiyalovchi va o'q organlarining anatomik tuzilishi asosida strukturaviy diagnostik va moslashish xususiyatlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Birinchi bo'limida ontogenez bosqichlarida *S. paulsenii*, *S. aperta*, *S. incanescens*, *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlari assimilyatsiyalovchi organlarining anatomik tuzilishini o'rganish asosida strukturaviy diagnostik belgilar aniqlandi.

Urug'pallabarg mezofillining krans-hujayrali va krans-hujayrasiz tipi aniqlanib, *S. paulsenii* turida – krans-sentrik (*Salsoloid*) va *S. incanescens* turida esa – krans-to'pbarsimon (*Atriplokoid*) tipli mezofillari arid mintaqasiga moslashish jarayonida ularda krans-hujayraning shakllanganligi prodvnutiy belgi hisoblanadi. *S. aperta* turida – izolateral ustunsimon (*Korispermoid*), *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlarida – dorsiventral (*Askiroid*) tipli mezofilllar aniqlanib, arid mintaqasiga moslashish jarayonida ularda krans-hujayraning shakllanmaganligi mazkur turlarning primitivligini izohlaydi (2 - rasm a, b, d, e).

Urug'pallabarglar amfistomatik tuzilishga ega bo'lib, anomatsit, gemipatsit va paratsit tipli og'izchalar aniqlandi. *S. paulsenii* va *S. aperta* turlarida – anomatsit va gemiparatsit tipli va *S. incanescens* turida – anomatsit, gemipatsit va paratsit tipli og'izchalarning kam sonliligi, *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlarida esa – gemiparatsit va paratsit tipli og'izchalarining ko'p sonliligi aniqlanib, og'izchalarning tiplari turlarning diagnostik belgisi hisoblanib, ularni identifikatsiyalash jarayonida foydalanish mumkin.

Salsola turlari bargining epiderma hujayralari to'g'ri chizikli, proyeksiyasi ko'pqirrali bo'lib, bir hujayrali so'rg'ichsimon (*S. paulsenii*), uzun ko'p hujayrali tugunsimon va tishsimon (*S. incanescens*), ko'p hujayrali chigalsimon va tugunsimon (*S. sclerantha* va *S. leptoclada*) trixomalar bilan qoplangan.

Barglari amfistomatik tuzilishga ega bo'lib, anomatsit, gemipatsit va paratsit tipli og'izchalar aniqlandi. *S. paulsenii* va *S. incanescens* turlarida – anomatsit, gemiparatsit va paratsit tipli va *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlarida esa – anomatsit va gemiparatsit tipli og'izchalarining ko'p sonliligi, *S. aperta* turida – anomatsit va gemiparatsit tipli og'izchalarining kam sonliligi aniqlanib, og'izchalarning tiplari turlarning diagnostik belgisi hisoblanib, ularni identifikatsiyalash jarayonida foydalanish mumkin.



2-rasm. *Salsola* turlari urug'pallabarg va barg mezofillining anatomik tuzilishi:
 a,b – krans-hujayrali urug'pallabarg mezofilli, d,e- krans-hujayrasiz urug'pallabarg mezofilli,
 g – barg mezofillining detali; h, i – yon o'tkazuvchi bog'lamlarning krans-hujayraga
 birikkanligi, k – asosiy o'tkazuvchi bog'lam. **Shartli belgilar:** AO'B – asosiy o'tkazuvchi
 bog'lam, BO – barg og'izchalari, D – druzlar, GH – gipoderma hujayralar,
 G'H – g'ovaksimon hujayralar, HB – hujayralararo bo'shliq, KL – kollenxima, KH – krans
 hujayralar, Ks – ksilema, E – epiderma, PO'B – periferik o'tkazuvchi bog'lam, SH – suv
 saqlovchi hujayra, SK – sklerenxima, ST – so'rg'ichsimon trixoma, UH – ustunsimon
 hujayralar, UO – urug'pallabarg og'izchalari, F – floema.

Salsola barcha turlari bargining uchki qismidan oʻrta qismigacha krans-sentrik (*Salsoloid*) tipli mezofilli va bargning asos qismidan oʻrta qismigacha esa krans-ventro-dorsal tipli barg mezofilli aniqlandi. Krans-sentrik (*Salsoloid*) tipli barg mezofillining markaziy qismida 1 ta yopiq kollateral tipli asosiy oʻtkazuvchi bogʻlam joylashgan boʻlib, periferik qismida koʻp sonli yon oʻtkazuvchi bogʻlamlar krans-hujayraga birikkanligi *Salsola* turkumi turlariga xos boʻlgan taksonomik belgisi hisoblanadi.

Evolyutsiya davrida koʻplab oʻsimliklar atrof-muhitning oʻzgarishiga moslashish mexanizmining taʼsiri natijasida toʻqima va hujayralarida yangi strukturaviy belgilari paydo boʻlib, ularning mazkur sharoitga yuqori darajada moslashganligi kseromorfligini koʻrsatadi.


Salsola turlari assimilyatsiyalovchi organlaridagi anatomik belgilarning miqdoriy koʻrsatkichlarini solishtirma tahlil qilish asosida kseromorf, ksero-galomorf, galo-kseromorf va galomorf belgilar D.F. Katler va boshq. (2007), A.A. Butnik va boshqalar (2017) va G.M. Duschanovalarning (2016) tasnifi boʻyicha *S. paulsenii* va *S. incanescens* turlari urugʻpallabarg mezofillarida ksero-galomorf, *S. aperta* turida – galomorf, *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlarida esa kseromorf belgilarning ustunlik qilishi, barg mezofillida esa *S. paulsenii*, *S. incanescens* va *S. leptoclada* turlarida ksero-galomorf, *S. aperta* turida galo-kseromorf va *S. sclerantha* turida esa kseromorf belgilarning ustunlik qilishi aniqlandi. Shuningdek, *S. paulsenii* va *S. incanescens* turlari assimilyatsiyalovchi organlarida C₄-tipli fotosintez jarayonini amalga oshiruvchi krans-hujayralarining shakllanganligi progressiv belgi hisoblanib, mazkur turlarning evolyutsion kelib chiqishida yosh turligini tasdiqlaydi va hozirgi yashash sharoitiga moslashganligini taʼminlaydi.

Ikkinchi boʻlimida ontogenez bosqichlarida *Salsola* turlari oʻq organlarining anatomik tuzilishi asosida strukturaviy diagnostik belgilari keltirilgan.

Salsola turlari poyasining meristematik zonasida ikkilamchi oʻtkazuvchi bogʻlamlarning shakllanishi va ulardagi oraliq sklerenxima hujayralarining hosil boʻlishiga qarab, anomal-polikambial yoʻgʻonlashishi A. Fahn, M.N. Zimmerman (1982); A.A. Butnik (1983, 2009); A.K. Timonin (2011) va G.M. Duschanovalarning (2016; 2017) tasnifi boʻyicha krans-hujayrali va krans-hujayrasiz anomal-polikambial tipi aniqlandi. *S. paulsenii* turi poyasining krans-bogʻlamsimon tipliligi, *S. aperta*, *S. incanescens*, *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlarida esa krans-hujayrasiz bogʻlamsimon tipliligi aniqlandi (3-rasm).

Shuningdek, *S. paulsenii* turi poyasining birlamchi poʻstloq parenximasi krans-hujayrali boʻlib, fotosintezning C₄-tipini amalga oshiruvchi ustunsimon va krans hujayralarning shakllanganligi A.A. Butnik, M.M. Maxmudova (2004, 2005) va B.B. Osmonali va boshqalarning (2020) maʼlumotlarini tasdiqlaydi va A.A. Butnik (1975) maʼlumotlari boʻyicha turining arid mintaqasiga moslashish jarayonida oʻrganilgan turlar ichida yosh tur deb hisoblash mumkinligini izohlaydi. *S. aperta*, *S. incanescens*, *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlarida esa poʻstloq parenximasi krans-hujayrasiz tipli boʻlib, mazkur turlarning vegetatsiya davrida fellogen hujayralarining hisobiga peridermaning shakllanishi natijasida ikkilamchi poʻstloq

parenximasining rivojlanganligi bilan izohlanadi. *S. paulsenii* va *S. incanescens* turlari po'stloq va parenxima hujayralarida ko'p sonli kaltsiy oksalat druzlari, *S. aperta* turida esa nisbatan kam sonli kaltsiy oksalat druzlari va kristallarning mavjudligi P.A. Genkel (1946, 1950), A.A. Shaxov (1956), N.I. Akjigitova (1982) va A.P. Suxorukov (2014) kabi olimlarning ma'lumotlari bo'yicha ularning eugalofit o'simliklar guruhiga kirishini izohlaydi.



3-rasm. *Salsola paulsenii* turi poyasi va ildizining anatomik tuzilishi:

a – poyaning detali; b – birlamchi po'stloq parenximasi; g – ikkilamchi o'tkazuvchi bog'lamlar; d – ksilema va sklerenxima; e – floema va birlamchi ksilemalar.

Shartli belgilar: BPP – birlamchi po'stloq parenximasi, BKs – birlamchi ksilema, D – druz, E – epiderma, IO'B – ikkilamchi o'tkazuvchi bog'lamlar, KH – krans hujayra, Ks – ksilema; L – libriform – yog'ochlik, PP – po'stloq parenximasi, Sk – sklerenxima, STr – so'rg'ichsimon trixomalar, UH – ustunsimon hujayra, O' – o'zak, F – floema.

Markaziy silindrning yog'ochlik parenximasida ikkilamchi o'tkazuvchi bog'lamlardagi ksilema naylarining yirik-kichik diametrliligi va joylashishiga qarab A.A. Butnik (1983) ma'lumotlariga ko'ra *S. paulsenii*, *S. incanescens* va *S. aperta* turlarida ksilemaning yirikligi, kam sonliligi, floema va ksilemalarning alohidaligi va birikkanligiga ko'ra sklerenxim-bog'lamsimon tipli mezobog'lamli kenja tip, *S. sclerantha* turida ksilemalarning yirik va kichikligi, ko'p sonliligi, floema va ksilemalarning alohidaligiga ko'ra sklerenxim-bog'lamsimon tipli oraliq mezo- va mikrobog'lamli kenja tip hamda *S. leptoclada* turida esa ksilemalarning kichikligi, ko'p sonliligi, floema va ksilemalarning birikkanligiga ko'ra sklerenxim-bog'lamsimon tipli mikrobog'lamli kenja tipga mansubligi aniqlandi.

Salsola turlarida ildizning birlamchi anatomik tuzilishi diarx tipliligi, ikkilamchi tuzilishi esa sklerenxim-bog'lamsimon tipli anomal-polikambial yo'g'onlashganligi va peridermaning shakllanganligi aniqlandi. Ildizning birlamchi tuzilishida po'stloq parenximasining qalinligi va suvni saqlash xususiyatiga egaligi, markaziy silindrning kichik diametrliligi arid mintaqasida tarqalgan o'simliklarga xos belgilar hisoblanadi (3-rasm).

Barcha turlarda ontogenezining immatur bosqichida ildizning ikkilamchi yo'g'onlashishi kuzatildi. Generativ davrning mevalash fazasida markaziy silindrdagi ikkilamchi o'tkazuvchi bog'lamlar 6-11 qatordan iborat bo'lib, A.A. Butnik (1983) ma'lumotlari bo'yicha *S. paulsenii*, *S. aperta*, *S. incanescens* va *S. leptoclada* turlarida spiral-bog'lamsimon tipliligi, A.K. Timonin (2011) ma'lumotlari bo'yicha *S. sclerantha* turida esa uzluksiz halqali-bog'lamsimon tipliligi aniqlandi. Ikkilamchi o'tkazuvchi bog'lamlardagi floema va ksilema naylari bir-biriga birikkan bo'lib, ularning orasida sklerenxima hujayralari shakllangan.

Salsola turlari o'q organlari strukturaviy belgilarining miqdoriy ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosida arid mintaqasiga moslashish xususiyatlariga ko'ra *S. paulsenii* va *S. incanescens* turlarida kseromorf belgilarning ustunlik qilishi qurg'oqchil sharoitga, *S. aperta* turida – galomorf belgilarning ustunlik qilishi esa sho'rlangan tuproqlarga moslashganligini izohlaydi. *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlarida ksero-galomorf belgilarning bir xil nisbatda namoyon bo'lishi, ularning qurg'oqchil va sho'rlangan tuproqlarga yaxshi moslashganligidan dalolat beradi.

Dissertasiyaning "***Salsola* L. turkumi turlarining arid mintaqasiga strukturaviy moslashish xususiyatlari**" deb nomlangan to'rtinchi bobi *Salsola* turlari ontogenezining davr va bosqichlarida assimilyatsiyalovchi va o'q organlarining strukturaviy moslashish xususiyatlariga bag'ishlangan.

S. paulsenii, *S. incanescens*, *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlarida mevadagi gulqo'rgo'nning uchki qismi o'tkir konussimon shakli murtakni himoya qilish va qanotchalarning shakllanganligi mevalarning anemoxoriya usulida tarqalishini ta'minlaydi. *S. aperta*, *S. incanescens* va *S. sclerantha* turlarida esa mevalarning yirikligi va sklerifikatsiyalashmaganligi aniqlanib, *S. paulsenii* va *S. leptoclada* turlarida mevalarning kichikligi, turli darajada sklerifikatsiyalashganligi moslashish jarayonida kseromorflikning yuqori ko'rsatkichi hisoblanadi. Urug'pallabarglar vegetatsiyasining davomiyligi *S. sclerantha* va *S. leptoclada* turlarida qisqa bo'lib, yuvenil bosqichigacha saqlanganligi, *S. paulsenii*, *S. aperta* va *S. incanescens*

turlarida esa uzoq davom etishi va immatur bosqichigacha saqlanishi A.A. Butnik (1989) ma'lumotlariga ko'ra kotiledonar tipligini izohlaydi.

